



O'QUVCHILARDA BOLALIKDAN IJTIMOIIY DUNYO TO'G'RISIDAGI BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Muhamedova Nargisa Abduraxmonovna

Toshkent viloyati Bekobod tumani Dilbar

Ikromova nomidagi 40-makab psixologi

Annotatsiya: Muallif ushbu maqola orqali o'quvchilardagi ijtimoiy dunyo qarash, ularni bilm o'zlashtirishi borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiylashuv, isloxot, dunyo qarash, fikrlar jangi, malaka, tajriba, ko'nikma.

Hozirgi davr har bir kasb egasidan bilimdonlik va kasbiy mahoratni takomillashtirib borishni talab etadi. Bunda ustoz-shogird an'analaridan unumli foydalanish yaxshi natija beradi. Ustoz-shogird an'analari ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib kelgan lekin bugungi kunga kelib ta'lim tizimida “Ustoz-shogird” maktabiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Bu tizimning afzalliklari yosh tarbiyachilarni esa ilmiy, medodik jihatdan ko'p narsalarni o'rganishga va o'quv jarayonida ko'p mavzularni amaliy o'zlashtirishga yordam beradi. Kam hayotiy tajriba va ruhiy jarayonlarning rivojlanishi jihatlariga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bola uchun o'rab turgan voqelikni o'zicha talqin etadi. Mohir pedagog ushbu jihatlarni bilishi va bolalar bilan muloqot jarayonida hisobga olish zarur.

1. Bolalar juda kuzatuvchan. Biz kattalar e'tibor qilmagan mayda chuydalarni ular tez sezishadi. Lekin bolalar shunchaki, ushbu mayda chuydalarning ma'no va ko'rinishiga chuqur e'tibor qilmasdan, yuzaki sezishadi.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar hamma narsani bilishni istashadi. Buning yaqqol ko'rinishi ularning bitmas tuganmas savol berishlaridir. Savollar ham yoshga qarab o'zgaradi. Agar 3 yoshda ko'proq “nima?” degan savolni bersa, 4 yoshda esa “nega?”,



keyinchalik “ bu qanday bo‘ladi?” degan savollar tug‘iladi.

3. Bolalarning o‘z logikasi bor. Ularning bahosi kattalar nuqtai nazari bilan adekvat (to‘g‘ri) yoki noadekvat (noto‘g‘ri) bo‘lishi mumkin.

4. Bolalar doimo emotsional bo‘lishadi. Ular avvalo sezib, keyin anglashadi.

Shuning uchun pedagogik jarayonni rejalashtirayotganda buni esda tutish zarur. Bolani ijtimoiy dunyoga qiziqtirish jarayonining samarasi ko‘p tomondan pedagog foydalana oladigan jihatlarga bog‘liq.

1. Ijtimoiy voqelik, aniq hayot. Pedagogik jarayonda shunday ko‘rinish va voqealarni tanlash lozimki, ular bolaga tushunarli bo‘lsin, jonlantira olsin.

2. Dunyoning qo‘lbola buyumlari. Ularni kattalar bolalar bilan muloqotda ko‘rsatishlari va ular bilan ishlashni o‘rgatishlari zarur. Bolaning buyumlar dunyosida muhim o‘rinni o‘yingoh va uning xilma-xilligi egallaydi. (texnik ko‘rinishdagi xalq o‘yingohlari)

3. Badiiy adabiyot. Bola hayotiga albatta turli janrdagi, ya’ni ertaklar, hikoyalar, sherlar va h.z. asarlarni kiritish lozim.4. Tasviriy san’at. Yuqorida sanab o‘tilgan jihatlar bolaning ijtimoiy rivojlanishiga quyidagi talablarga javob bergandagina sezilarli ta’sir etadi:

- bolaning qabul qilishi

- yosh bo‘yicha imkoniyatlar to‘g‘riligi

- emotsional to‘liqlik. Ijtimoiy dunyo to‘g‘risidagi ma’lumotning emotsional to‘liqligi va bolaning emotsional faolligi - bu bir tanganing ikki tomoni.

Bolaning emotsional faolligi bu - uning atrof dunyoni qiziquvchan, emotsional qabul qilishi, unda ishtirok etishi, unga to‘g‘ri baho berishni bilishdir. Emotsional faol bola boshqalarning tashvishiga, zulmiga befarq qololmaydi. Emotsional faollik odamlar bilan, atrof dunyo bilan o‘zaro munosabat, muloqotga talabni rivojlanishiga undaydi. Esda tutish lozimki, bolaning tanishi, his etishi orqali, bola muloqotining rivojlanishi fantaziyasi va o‘y-fikrlari rivojlanadi. Shuning uchun bolaning faolligi rivojlanishining eng muhim yo‘llaridan biri bu tasavvur etuvchi holatdir. Bu holat bolani o‘qitish jarayonini tabiiy, erkin bo‘lishini ta’minlaydi.

Ertak bola uchun mos va kattalar uchun tushunarli narsadir. Zarur mavzularda ertaklar



to‘qish qiziqarli mashg‘ulotdir. Bu bolaning o‘zini kuchli va zabardast deb his qilishiga yordam beradi. Chunki ertaklar to‘qish ijodiy potentsiali tuganmas va turli xil ertaklarni to‘qish mumkin. Eng yaxshi usullardan biri bu improvizatsiyalashtirilgan o‘yin-spektakllardir. Bu orqali bolalar o‘z ichki dunyosini ijodiy, ijtimoiy, ularga tushunarli yo‘llar bilan boyitadi. Bunday qimmatli imkoniyat bola uchun ertak qahramoni tarafida bo‘lishi uchun zarurdir. Kutilmagan holatlar va yangilik elementlaridan foydalanish mumkin. Mashg‘ulotning bunday boshlanishi bolani qiziqtiradi, unda topishmoqni tezroq topish istagi o‘yg‘onadi. Mashg‘ulotingizdagi yangilik uning qanday shaklda qayerda o‘tkazilayotganligi bilan birga ishtirokchilar va mashg‘ulotga ham bog‘liq. Kulgi va hazil ham juda yordam beradi. Bu usul bolaga predmetlarga boshqa tomonlama qarashga ham imkon berib, kattalar o‘rtasidagi chegarani olib tashlashiga imkon beradi. Bunda pedagogik va insoniy harakatlarni, oqko‘ngillikni unutmaslik lozim. Bir mashg‘ulotda pedagog bir necha usullardan foydalanishi mumkinki, bunda bolaning emotsial faolligi rivojlanishiga kompleks yondashuv bo‘ladi. Lekin bunda oltin oraliq qoidasiga amal qilish kerak. Xulosa o‘rnida e’tiborimizni shunga qaratmoqchimizki, bolaning emotsional faolligini rivojlanishidagi asosiy usul bu kattalarning namunasi bo‘lib qoladi. Kattalarning u yoki bu voqealarga o‘zining emotsial munosabatini bolalarga ko‘rsata bilishi muhim shartdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S.X.Jalilova, N.A G`ayibova. “Umumiy diagnostika”. Toshkent 2018
2. Jalilova S.X. “Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi”. Toshkent 2017
3. Z.T.Nishanova, N.G Kamilova, D.U Abdullayeva, M.X.Xolnazarov. “Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya” Toshkent-2018